

BOSHLANG`ICH SINFLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Qobilova Madina Sobir qizi  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Boshlang`ich ta`lim fakulteti  
Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi  
2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni sevish, uni ardoqlash, unga bo`lgan mehr-muhabbat, sadoqat kabi tuyg`ular va bularni qanday qilib shakllantirishimiz to`g`risida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Vatanparvarlik, tarbiyaning individual shakli, pedagogic va kasbiy mahorat, vatan.

VATAN – insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o`tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo`lgan tushunchadir. Vatan ostonadan, o`zi tug`ilib o`sgan go`shadan boshlanadi. Shuning uchun bola o`zi yashab, nafas olib turgan xonardonida ulg`ayib voyaga yetishishida muhtasham va qudratli makon bo`lgan ona zaminiga mehr-muhabbat va sadoqati abadiy bo`lmog`i zarur.

Insondagi eng oliv tuyg`u — Vatan tuyg`usidir.

O`zi tugilib o`sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o`zga yurt tabiatidan o`z yurti tabiatichalik zavq ololmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butun aql-zakovati, qalb qo`ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go`zalligi, rivojiga bahshida eta olgan insondagina bu tuyg`u namoyon bo`ladi.

Vatan tuyg`usi — bu Vatanni himoya qilib, Vatan deya fido bo`lgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, singari yuzlab sher yuraklarni eslashdir. Tomirida ohirgi tomchi qoni qolguncha dushmanqa qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Temir Malik, singari buysunmas bahodirlarning, himoyachilarining nomini yodga olishdir.

Vatanparvarlik - kishining o`zi tug`ilib o`sgan, kamol topgan joy, zamin, o`lkaga bo`lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma`naviy ahloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatan, vatan tuyg`usi, vatanparvarlik, insonparvarlik va insonda mehr tuyg`ularining naqadar

yuqori tuyg`u ekanligi va unga sodiq bo`lib qolish, islom diniga e`tiqod qiluvchi har bir mo`min — muslimon hayotining mazmuni ekanligining alomalarimiz asarlarida qayd etilgan.

Jumladan, Kaykovusning «Qobusnom», Nosir Xisrovning «Saodatnom», Yusuf Xos Hojibning «Qutatg`u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», A.Navoyning «Mahbub ul Qulub», A.Temurning «Amur Temur o`gitlari» va h.k. asarlarida ko`rsatilgan.

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin qarindoshlar qiymatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so`zda mujassamlangan.

Vatanga nafi tekkudek bo`lsa, qaysi vijdonli odam uchun jon bermoqqa ikkilalar ekan.

Sitseron (Italiya faylosufi)

Kimki o`z yurtini sevmasa, u hech nimani sevmaydi.

Jorj Bayron (ingliz shoiri)

Vatanga nafi yo`q yashalgan har kun, inson hayotini qilar bemazmun.

Salmon Savajiy (fors shoiri).

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

➤ o'quvchilarni o'zi tug'ilib o'sgan Vataniga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

➤ qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

➤ turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

➤ har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

➤ Vatan manfaatlarini hayotning barcha jahbalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish;

➤ yurt uchun fidoiy bo'lish - bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

➤ O`qituvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda uysushtiriladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar ma'lum talablarga javob berishi lozim. Ya'ni:

➤ - tarbiyaviy tadbirning rejali, maqsadli, izchil, tizimli o'tkazilishi;

➤ - tarbiyaviy tadbirni hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etish;

➤ - o'quvchi yoshlarni, psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish;

➤ - tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarning qiziqishi, intilishlariga javob berishi;

➤ - hayotiy muammolarning echimini topishga yo`naltirilganligi;

➤ - ta'lim jarayonida olingan ma'naviy-axloqiy bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash, to`ldirish va rivojlantirish;

➤ - Vatan himoyachisi, oila boshlig`i, jamiyatning faol fuqarosi bo`lishga tayyor turish.

“Idrok xaritasi” (Konceptual xarita) adabiyotda turli nomlar bilan uchraydi: “Idrok xaritasi”, “Konceptual xarita”, “Kartografiya koncepciyasi”, “Intellekt-xarita” - fikrlarni taqdim qilish va bog'lash usuli bo'lib, u o'quvchilarda tasavvur qilish va fikrlarni tizimlashtirish, o'rganilayotgan mavzudagi bosh g'oyalalar yoki asosiy tushunchalarni, birlamchi tushunchalarni izohlashga yordam beruvchi ikkilamchi va uchlamchi g'oyalalar yoki tushunchalarni ajratish, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Shu o`rinda 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligming I-qism 1-bolimi aynan "Vatanparvarlik nima?" mavzusi bilan boshlanadi va quyidagi rasmlar orqali vatanparvarlik tuygulari aks etadi:

- 1 .Siz o'zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
- 2.Qaysi ishlaringiz Vatan uchun foydali bolgan deb oylaysiz?
- 3.Qanday ishlar vatanparvarlik hisoblanmaydi?

Yurtga balo kelganida unga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish kerakliligini tushuntirish maqsadida Sa'dulla Quronovning "Chumolining jasorati" nomli hikoyasini keltirishimiz mumkin:

Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkangan keng o'tloq bo'lgan ekan. U yerda qo'y-qo'zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahil-inoq yashar ekan. Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg'ir deyarli yog'mabdi. Jazirama quyosh tig'ida o'simliklar qurib, qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o't ketibdi. Kutilmagan yong'in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o'tloq yaqinidagi buloqdan mitti og'izchasida suv keltirib, olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko'rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi:

- Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kelayotgan suv zarrasi bilan olov o'chib qolarmidi? Qo'y bu ishingni, joningni asra!

Shunda chumoli yumushidan to'xtamay javob beribdi:

- To'g'ri aytasiz, bir zarra suv yong'inni o'chirmaydi. Lekin men urinib ko'rmoqchiman. Chunki bu o'tloq - mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo'lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman.Chumolining bu gapi o'tloq ahliga qattiq ta'sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to'xtab, chumolining ortidan ergashishibdi. Asalari chelakchasida, kaklik tumshug'ida, qo'y-qo'zilar og'zida suv keltirib, olovni o'chirishga shoshilishibdi.Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib, olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg'ir yog'gandek bo'libdi. Shu tariqa yong'in o'chirilibdi.

Hikoya axloqiy va axloqiy tarbiyaning asosiy usullaridan biri bo'lib, jamiyatda qabul qilingan xatti-harakatlar normalari haqida talabalarning g'oyalari va tushunchalarini to'plashni o'z ichiga oladi. Qolaversa, bu usul maktab o'quvchilarining tajribalariga asoslanadi, ular orqali o'quvchilar yaxshi va yomonni, adolatlari va nohaqni ajrata boshlaydi. Badiiy asarlarni o'rganishda hikoya qilish va tushuntirish usullarini amalga oshirish mumkin.

Bu hikoyadan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, agarda yurtga balo kelsa barchamiz bir yoqadan bosh chiqarmogimiz,kurashmogiz darkor.Mana shu kichik bir chumolining Vatanga bolgan muhabbat,fidoyiligi biz insonlarni ham yurtni sevishga,sodiqlikka undaydi.

Ona - Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi. Inson o'z Vatanida kamol topadi. Qadrlanadi. Hayot maktabini o'taydi. Farovonlik va baxt - saodatga erishadi.Vatan sözini biz hamisha ona so'zi bilan yonma- yon ifodalaymiz.Ona - Vatan timsolida biz jamiyatimiz tabiatini, mehribonlik va muvofiqlik

poydevoriga qurilgan tuzumimiz xislatini ko'ramiz. O'zbekistonning mustaqilligi tufayli Vatan tarixi moddiy va ma'naviy merosga aylandi. Okean ortidagi mamlakatni bиринчи bo'lib kashf etган Abu Rayhon Beruniy, ne - ne sarkardalar tиг' kuchi bilan ololmagan joylarni qalam kuchi bilan zabit etган Alisher Navoiy, tibbiyat ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino, buyuk matematik al -Xorazmiy, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahon ahliga mashhur bo'lган ma'rifatli o'zbek millatining qalbi, aqli, xulqi, bilimi, tili, sarkardorligi bilan hurmat topgan yurtdoshlarimizni butun dunyo biladi, ularga ham Vatan ona o'rnida ona, ota o'rnida ota bo'lган. SHuning uchun ham ona zamin, ona -Vatan, ona yer kabi tushunchalar hayotimizga, ongimizga singib ketgan. Necha yuz yillardan buyon ne -ne ulug' farzandlarni o'z quchog'iga olgan ona Yer, ajdodlarmizga onalik qilgan. Ha, u ota- bobolarmizning onasi bo'lган. U bizning onamiz va kelajak avlodning onasi bo'lajak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash — odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag'rikeng va olivjanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir", - deb xalqimizning necha asrlardan buyon yagona orzu - ona -Vatan sog'inchi bilan yashaganini juda to'g'ri ta'kidlaydilar. Kelajakda buyuk davlat darajasiga ko'tarilish maqsadi yo'lida intilayotgan Ozbekiston Vatani - xalq hayoti, turmush tarzi, urf- odatlari, ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirmoqda. Vatanparvarlik - bu ona zaminga bo'lган muhabbat, uni sevish, e'zozlash. Uning ravnaqiga har bir fuqaroning o'z hissasini qo'shishga erishish. Vatanparvarlik - bu ona- Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishish. Vatanparvarlik -bu Vatanimiz xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o'z xissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lish. Vatanparvarlik - bu o'zbek xalqining qadim- qadimlardan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko'xna zaminning tarixini bilishga erishish. Vatanparvarlik - bu o'zbek xalqining madaniy meroslari hisoblangan madaniyat, san'at, me'morchilik yodgorliklarini asrab -avaylash va ularnitng tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatni bilish. Vatanparvarlik - bu o'z millatiga, ona- yeriga, imoniga sodiqlikdir. Vatanparvarlik - bu sog'lom kuchlar, sog'lom tafakkur egalari, dini, imoni pokizalikdir. Vatanparvarlik - bu Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash. Vatan taraqqiyoti, milliy obro'siga hissa qo'shish, foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon - shuxrati va manfaatini o'yash, insonparvar bo'lish demakdir. Vatanparvarlik - bu har bir kishining o'z xalqiga bo'lган fidoyiliklari va xalq dardini o'z dardlaridek o'ylab yashash, O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishiga hissa qo'shishdir. Vatanparvarlik - shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. SHuning uchun ham bolalarda vatanparvarlik tuyg'usi go'daklikdan boshlab shakllantirilsa, u so'nggi nafasgacha boqiy bo'ladi.

Demak, ona yurtga munosib farzand bo'lish uchun namunali axloq - odob bilan o'rnak ko'rsatish, Vatan uchun jon olib, jon bergenlarni hamisha yodda tutish, el - yurt manfaati

yo'lida mahnatdan qochmsalik tamoyillariga amal qilishdir.

CHunki, Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hissi o'zbek millatining qadriyatlaridan chuqur o'rinni egallagandir. Vatanni sevish va uning daxlsizligini saqlash uchun shu muborak Vatanni boshiga og'ir kun tushishi shart emsa. Har bir harakatimiz, amalga oshgan, oshmagan niyatlarimiz, kurtak yozayotgan orzu – umidlarimiz, turmushdani achchig' – chuchuk tashvivshlarimiz har kuni, har soniya Vatan taqdiri bilan bog'lanadi. Tabiiyki, Vatanparvarlik mazmunini boyitib boradi. Muqaddas vatanparvarlik tuyg'usi qalbimizda jo'sh urar ekan Vatan biznikidir. Muqaddas O'zbekistonning madhiyasi, bayrog'i, gerbidagi paxta, bug'doy, xumo qushi, mamlakatimiz tuprog'ida yashab turgan va o'zini vatanparvar deb hisoblagan har bir kishining qalbidan chuqur joy olishi va uni asrab – avaylashi shart. Demak, har bir sog'lom avlodda o'z xalqining an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash kerak. Ana shundagina o'z xalqini, millatlarning butun hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy inson, o'z Vatanining jonkuyari voyaga yetadi. SHunday ekan har bir kishining qalbida o'z vataniga buyuk e'tiqod, oljanob muruvvat his- tuyg'ulari barq uring tursa, bu ajoyib ne'matlarni umrbod ardoqlasa, hayotda, turmush tarzida qo'llasa, shundagina u sofdil, samimiy va odil fazilatli haqiqiy vatanparvar bo'la oladi. Vatanparvarlik tuyg'usi uyingning ostonasidan boshlanadi, deydilar, bu – to'g'ri, lekin u boshlangan yerda to'xtab qolsa, milliy mahdudlikka, mahalliy parastlikka aylanib qolishi mumkin. Bil'aks, Ulug' Vatan sari yo'l boshlasa, u seni xalqlar do'stligining go'zal bo'stoniga olib kiradi. Yashab turgan o'lkangga bo'lgan muhabbating xalqlar do'stligi chashmasining bosh irmog'i bo'lib, bu irmoqlar qo'shilib baynalmilal do'stlikning ulug' ummoniga quyiladi. Ona – Vatanning go'zal tabiatidan zavqlana bilmagan va uni zebo qilish uchun kurashmagan kishidan vatanparvar chiqmaydi. CHunki uning dilida Vatan ishqisi yo'q. CHin insonning sevgisi uning Vatanga bo'lgan muhabbati bilan egizak bo'ladi va bu hissiyotlar bir – biridan quvvat oladi. Yashab turgan o'lkang, oilang, o'qib turgan bilim o'chog'ing bilan faxrlanib yashashga odatlanmog'ing lozim, chunki insondagi vatanparvarlik tuyg'usi ana shulardan boshlanadi. O'zingdagi barcha fazilatlar uchun avvalo ona – Vatandan va oljanob insonlardan qarzdorsan. Bizdan Vatanning qudrati avlodning, vatanparvarlik tuyg'usi bilan mutonosib ravishda rivojlanadi. Vatan va Vatanparvarlik tuyg'usini o'zbek shoiri Furqat shunday ta'riflaydi: Vatanim bog'iga bir kun mujdai gulyor muqarrar, CHamanim xusniga gulgun chehrai diydor muqarrar. Tasvir suratini til ila izhor etarg'a, Bu dilim mulkiga ilhom, misrai ash'or muqarrar. Vatanparvarlik – fuqarolik madaniyatining muhim me'zoni sifatidagi umumbashariy fazilatlardan biri bo'lib, inson va uning ajdodlari, avlodlarining kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohga munosabatini anglatadi. Vatanning o'zi nima? Vatan bu – xalqning o'tmishi va bugungi kelajagidir. U insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi baxt – saodatga eltuvchi o'choqdir. "O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi – bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir", degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov. Bu ta'rif vatanparvarlikning, fuqarolikning, fuqarolik jamiyatini barpo qilish, uning kishilarida fuqarolik burchi va mas'uliyati, milliy g'urur va iftixor tuyg'usi kabi fuqarolik

madaniyatining tarkibiy qismlarini yoshlardan, avvalo muqaddas ramzlar – Davlat tamg’asi, Davlat bayrog’i, Davlat gimnini hurmat qilishni, ularni iftixor bilan tilga olishni va ularga cheksiz sadoqat bilan qarashni talab etadi. Qadim zamonlardan boshlab ota-bobolarimiz, momolarimiz tomonidan Vatan, Vatanparvarlik haqida ertak, doston, afsona, rivoyat, maqol, matal, masal, hikoyalar ijod qilinganki, ular bugungi kunda yosh avlodni vatanparvar qilib tarbiyalashda, ular ongiga Vatan to’g’risidagi ilk tushunchalarni singdirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bolalar ongiga Vatan to’g’risidagi ilk tushunchalar mana shu xalq og’zaki ijodi janrlari vositasida beriladi. E’tibor bering! Birovning yurtida bek bulguncha, Uzingni yurtingda it bul. Vatan gadosi – kafan gadosi. Vatani borning baxti bor. Mexnati borning – taxti bor. Davlatimiz ramzlari – bayroq, tamg’a, madhiya O’zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g’ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o’zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e’zozlash, o’zining qadr-qimmatini, o’z mamlakatida va shaxsan o’ziga bo’lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. Bu esa oilaning ham, o’z Vatanining ham shon-shuhratini oshirad O’qitish jarayonida o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik texnologiyadan foydalanish o’qituvchilaridan juda ko’p samarali mehnatni talab etadi.

Millatlar bor ekan, ko’p millatli davlat doirasida ularning birgalikda yashashi va mehnat qilishiga doir yangi – yangi masalalar ham paydo bo’laveradi. Davlatimiz rivojining hozirgi bosqichida madaniyatlarning o’zaro ta’siri va bir-birini o’zaro boyitishi chuqurlashtirish, millatlararo alokani kuchaytirish, vatanparvarligining mustahkam printsiplari ruhida tarbiyalash singari muammolar birinchi darajali ahamiyatga ega bo’laveradi.

Masalani mohiyati shundaki, mustaqil xalqning hayoti, madaniyati va san’atida milliy va vatanparvarlik jixatlar intilishlar, hususiyatlar, unsurlar, belgilar o’zaro ajralmas. Mustaqil respublikamiz milliy hususiyatlari belgilari va an’analari bilan uzviy ravishda **uyg`unlashib** bormoqda. O’z o’zidan ko’rinib turibdiki, o’zbek badiiy madaniyatida milliylik va vatanparvarlik dialektikasini tadbiq va targ’ib etish dolzarb siyosiy, falsafiy, nazariy va amaliy, estetik va badiiy muammolardan biridir. Bizdagi mavjud falsafa, estetika, san’atshunoslik va adabiyotshunoslikka doir ilmiy adabiyotlarda

«Vatanparvarlik», «Umuminsoniylik» tushunchalar bir biriga o’xshash, ma’nodosh so’zlar - ko’p hollarda bu tushunchalardagi bir-biridan jiddiy farq qiladigan tarixiy va estetik mazmun hisobga olinadi.

Bu ikki estetik kategoriya o’rtasidagi mushtaraklikka qaramay, ularda muhim tafovutlar ham bor, san’at va adabiyotdagi milliylik muammosi. Atroficha va teran tushunib etmaslik, milliy – badiiy xodisalarni to’g’ri tadbiq va ta’rif etolmaslik. Mustaqil mazmunda va milliy shaklda xilma – xil, ruhi va harakati jixatidan vatanparvar.

O’zbekiston davlatidagi millat va ellatlarni g’oyaviy – ma’naviy jixatdan jipslashtiruvchi kuch bo’lib qoladi.

Avvalo yosh avlodni mukammal inson bo’lib tarbiyalashda ularga har – xil musiqalardan ijro etib berish yoki eshittirish juda katta natija beradi.

O`quvchilar shu musiqa orqali ta`sirlana olish kerak bo`ladi . Qachonki musiqa o`zini ta`sirini ko`rsata olgandagina yaxshi natija beradi. Yosh avlodga yo`nalishni to`g`ri bergandagina ular musiqani qanday musiqa ekanligini tushinib etadi . Albatta o`quvchilar chet el musiqalarini ham tinglash kerak . Yuqorida aytib utilganidek musiqani ta`sirini uning tub ma'nosini tushinib etgandagina farqiga eta oladi .

Har bir sinfga uning rejada belgilangan tartibda bo`lgandagina yaxshi natija bera oladi. O`quvchilarni ko`proq qo`shq bilan band qilmay ularni nazariy bilimlarini kunt bilan o`rganmoq va e'tibor berish kerak, musiqa kompozitorlari tarixi bilan ko`proq shug`ullantirmok musiqa orqali jismoniy mashqlar uyushtirish kerak bo`ladi. Qachonki insonda milliy g`urur paydo bo`lgandagina u hamma narsani shu jumladan milliylikni his qiladi.

Demak u milliylikni his qildimi endi unda har-xil jaz – musiqasi va ajnabiy musiqalarini tinglashga ehtiyoj sezmaydi. O`qituvchi shunday bir g`oyani ilgari surish kerakki har-bir qiz bolalar vaqtisi kelib ona bo`ladi. Ona mas'uliyati bola tarbiyasida muhim rol o`ynaydi. O`sha bola eshitadigan birinchi allasi onaning halbini eng tubidan chiqish kerak bo`ladi, uni tinglagan har ?anday bolada uning qonida milliy ohang va ruh paydo bo`ladi.

Agar bolalarni tayyorlantirish uchun uning qulog`i ostida mantiqqa to`g`ri kelmaydigan musiqalar yangrasa, albatta u shu ruh bilan oziqlanadi va u o`zining milliy g`oyasini o`sib ulg`ayganda albatta yo`qotadi.

«Qush uyasida ko`rganini qiladi» degan xalq ma?oli bor. Bu maqol bejiz aytilmagan, yosh avlodga bog`chada qanday bilim berilgan bo`lsa u shu birinchi qo`yilgan qadam bilan oldinga intiladi. Ilk bor bolalarga eshitayotgan musiqalarni milliy musiqalarimizni ko`proq eshittirishimiz ularni ongiga singdirishni bilishlik kerak bo`ladi.

Maktabga kirib kelgan bolalar ilmga intiq, o`zga bir dunyo bilan kirib keladi. O`qituvchini har bir gapi o`quvchi uchun bir mo`jizadek tuyuladi. Agar shunday ekan bolalar dunyo qarashini to`g`ri yo`naltirish, o`quvchi qalbiga yo`l topa bilish kerak. Dastlabki bilim saviyasini to`g`ri tashkil qilish va dars reja asosida tashkil qila bilish kerak.

Musiqa ilmini tarix manbani to`g`ri tushuntira bilish.

- O`quvchini musiqaga bo`lgan qizqishini o`rganish
- O`quvchini musiqa qobiliyatini aniqlay bilish.
- O`quvchilarga mos qo`shqlarni, ular ongiga singdirish.

O`quvchilarni musiqaga qiziqtirish va ularni bilim saviyasini aniqlash, albatta har bir o`quvchi musiqa tarixi bilan nazariyani bilishi kerak. Qachonki o`quvchi musiqa tarixini ayniqsa mumtoz kuylar, milliy musiqalar tarixini mukammal bilsa, shu taqdirdagina musiqaga, milliy musiqaga qizqish, milliylik g`ururini uyg`otadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" l-qism darslik. Toshkent 2021-y.
2. <https://lex.uz> Toshkent sh. 2017-yil 4-aprel, PQ-2865-son

3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Barkamol avlod — O'zbrkiston taraqqiyotining poydevori"— Toshkent. Sharq 1997-y.
4. Tursunova.O "Oilada bola tarbiyasi" Toshkent 1995-y